



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG XODIMLARINI MAJBURIY MEHNATDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.

Sidiqova Gulsara Islomqulovna,

Angren shahar 30-DMTT direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20555783>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma'qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEYWORDS

maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, majburiy mehnat, huquqiy himoya, kasbiy majburiyat, noqonuniy badallar, pedagog maqomi, xalqaro tajriba.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) tarbiyachilarini o'z xizmat vazifalariga kirmaydigan majburiy mehnatga jalb etish hamda turli noqonuniy badallardan himoya qilishning bugungi kundagi dolzarb masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada pedagoglar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or xalqaro tajribasi o'rganilgan. Muallif tomonidan tarbiyachilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirish va pedagogik faoliyat uchun sog'lom muhit yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash poydevori aynan bog'chalardan boshlanadi. Biroq, sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramay, joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini, ayniqsa tarbiyachilarni, ularning kasbiy majburiyatlariga kirmaydigan jamoat ishlariga (obodonlashtirish, qog'ozbozlik, majburiy obunalar) jalb qilish holatlari hamon uchrab turibdi.

Tarbiyachini asosiy vazifasi bo'lgan — bolaga ta'lim-tarbiya berishdan chalg'itish, unga qo'shimcha moddiy yoki jismoniy yuklamalar yuklash ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, tarbiyachilarni majburiy mehnat va asossiz badallardan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi kunda tarbiyachilar duch kelayotgan salbiy holatlarni ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Majburiy mehnat (Kasbiy faoliyatga aloqador bo'lmagan ishlar):

- MTT hududidan tashqaridagi umumxalq hasharlari va tozalik ishlariga majburiy jalb etish;
- Turli tadbirlarda tomoshabin yoki tashkilotchi sifatida majburan ishtirok ettirish;
- O'z xizmat vazifasiga kirmaydigan statistik ma'lumotlarni yig'ish yoki hisobotlarni to'ldirish.

2. Noqonuniy pul yig'imi va badallar:

- Gazeta va jurnallarga majburiy obuna qilish;
- MTT ehtiyojlari (ta'mirlash, xo'jalik mollari, ko'rgazmali qurollar) uchun tarbiyachilarning o'z yonidan mablag' sarflashga majbur qilinishi;
- Turli ko'rik-tanlovlar, chiptalar yoki professional bayramlar bahonasi bilan yig'iladigan badallar.

Milliy qonunchiligimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mehnat huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi qadr-qimmati va ijtimoiy maqomini yuksaltirishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining **“Pedagogning maqomi to'g'risida”**gi Qonuni¹ hamda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi² bu boradagi fundamental kafolatlarni belgilab beradi.

Birinchidan, majburiy mehnatning qonunan taqiqlanishi. “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, pedagog xodimlarni ularning kasbiy majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, qishloq xo'jaligi ishlari hamda boshqa jamoat ishlariga jalb etish qat'iyan man etiladi. Shuningdek, yangi Mehnat kodeksining 5-moddasida majburiy mehnatdan foydalanish taqiqlanishi konstitutsiyaviy tamoyil sifatida mustahkamlangan bo'lib, xodimni intizomiy jazo chorasi qo'llash tahdid ostida biror-bir ishni bajarishga majburlash qonun buzilishi hisoblanadi.

Ikkininchidan, ish haqining daxlsizligi va noqonuniy badallar taqiqi. Amaliyotda ko'p kuzatiladigan gazeta-jurnallarga majburiy obuna, turli chiptalar yoki muassasa ehtiyojlari uchun asossiz pul yig'implari masalasi ham huquqiy jihatdan qat'iy tartibga solingan. “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, pedagoglardan ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hisobotlarni va ma'lumotlarni talab qilish, shuningdek, ularning ish haqidan turli badallar va majburiy obunalar uchun asossiz, o'z roziligisiz ushlab qolish qat'iyan taqiqlanadi. Mehnat kodeksining 269-moddasida xodimning mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin bo'lgan holatlar qat'iy chegaralangan bo'lib, har qanday ixtiyoriy-majburiy ko'rinishdagi ushlanmalar qonunga ziddir.

Uchinchidan, huquqiy madaniyat va ijro intizomi muammosi. Qonunchilikda jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralari (jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasi orqali pedagogning professional faoliyatiga qonuniy asoslarsiz aralashganlik uchun javobgarlik) belgilangan bo'lsa-da, real amaliyotda qonun normalarining buzilishi hamon kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi — joylardagi mahalliy ijro hokimiyati organlari hamda bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqiy madaniyati va savodxonligi yetarli darajada emasligidir. Ko'pincha muassasa rahbarlari qonun hujjatlarining to'g'ridan-to'g'ri taqiqlarini chetlab o'tib, “og'zaki topshiriqlar” yoki jamoaviy majburlash usullari orqali tarbiyachilar mehnatidan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Bu esa, o'z navbatida, pedagoglar o'rtasida huquqiy himoyasizlik hissini keltirib chiqaradi va davlat tomonidan qabul qilingan islohotlarning joylardagi samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, qonun ustuvorligini ta'minlash va rahbar kadrlar mas'uliyatini oshirish tizimini tubdan isloh qilish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan zaruratidir.

Tarbiyachilar huquqlarini himoya qilishda xalqaro tajriba tahlili

¹ O'zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni, 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-son

² O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 30.04.2023 yildagi

Maktabgacha ta'lim tizimi dunyoda eng ilg'or hisoblangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogning har qanday ortiqcha yuklama va majburiyatlardan ozod etilishi ta'lim sifatining bosh kafolatidir. Xususan, Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarga to'liq kasbiy muxtoriyat (avtonomiya) berilgan. Bu yerda tarbiyachilarni tekshiradigan yoki ulardan haftalik/oylik qog'ozbozlik hisobotlarini talab qiladigan yuqori organlar mavjud emas. Eng muhimi, Finlyandiya bog'chalarni moddiy jihatdan ta'minlash to'liq munitsipalitetlar (mahalliy budget) zimmasida bo'lib, o'quv qurollari yoki xo'jalik jihozlari uchun ota-onalardan ham, tarbiyachilardan ham biror sent badal yig'ish qonunan imkonsizdir. Tarbiyachi faqat dars jarayoniga va bolaning ijtimoiylashuviga e'tibor qaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy nufuzi va mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha Janubiy Koreya Respublikasining qonunchilik hamda amaliy tajribasi alohida diqqatga sazovordir. Ushbu mamlakatda bog'cha tarbiyachilarini har qanday ko'rinishdagi ma'muriy bosim, noqonuniy xarajatlar va o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan majburiy mehnatdan asrash maqsadida yaxlit huquqiy va raqamli himoya tizimi shakllantirilgan.

Birinchidan, professional faoliyatning huquqiy kafolatlari. Koreya qonunchiligida pedagoglarning daxlsizligini ta'minlovchi fundamental hujjat — **“Pedagogik xodimlar maqomini oshirish va ularning ta'limiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida”**gi maxsus Qonun (*Special Act on the Improvement of Teachers' Status and the Protection of Their Educational Activities*) hisoblanadi³. Ushbu qonun normalariga ko'ra, tarbiyachilarni o'zlarining mehnat shartnomasida ko'rsatilmagan asossiz jamoat ishlariga (obodonlashtirish, hududiy tozalik ishlari, ma'muriy tadbirlarga majburiy jalb etish) har qanday ko'rinishda bosim o'tkazish qat'iyan man etiladi. Qonun talablarini buzgan yoki pedagog kamsitilishiga yo'l qo'ygan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlariga nisbatan nafaqat ma'muriy va intizomiy choralar, balki juda og'ir moliyaviy sanksiyalar hamda muassasani davlat tomonidan subsidiyalashni to'xtatishgacha bo'lgan qat'iy choralar qo'llaniladi.

Ikkininchidan, mehnat funksiyalarining qat'iy delimitatsiyasi (ajratilishi). Koreya maktabgacha ta'lim tizimida *“tarbiyachi faqat ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanadi”* degan fundamental tamoyil amal qiladi. Buning amaliy isboti o'laroq, har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida xo'jalik, texnik, moliyaviy va ma'muriy-karguzarlik ishlarini yuritish uchun alohida yordamchi texnik xodimlar shtati joriy etilgan. Pedagog xodimlar bog'cha binosini ta'mirlash, moddiy jihozlar sotib olish, guruh xonalariga ko'rgazmali qurollarni o'z hisobidan yoki o'z mehnati bilan tayyorlash kabi jarayonlardan mutlaqo ozod qilingan. Bu esa tarbiyachining o'z ustida ishlashi va bor diqqat-e'tiborini bolaning intellektual rivojlanishiga qaratishi uchun zamin yaratadi.

Uchinchi, raqamli himoya va anonimlik platformalari. Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi tomonidan yo'lga qo'yilgan maxsus raqamli tizimlar orqali har bir tarbiyachi o'ziga nisbatan sodir etilayotgan noqonuniy xatti-harakatlar, majburiy obuna yoki badal yig'ish holatlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri (rahbariyatni chetlab o'tgan holda) anonim tarzda shikoyat yuborish huquqiga ega. Ushbu raqamli murojaatlar maxsus korrupsiyaga qarshi va pedagoglar

³ Special Act On The Improvement Of Teachers' Status And The Protection Of Their Educational Activities, Dec. 27, 2022

huquqini himoya qiluvchi mustaqil komissiyalar tomonidan o'rganiladi va qisqa muddatda huquqiy baho beriladi.

Natijada, Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagog faoliyatiga ma'muriy aralashuvni qonuniy va iqtisodiy choralar bilan cheklash hamda ta'lim muassasalarida xo'jalik ishlarini professional texnik xodimlarga topshirish — maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning eng samarali strategik yo'lidir.

Ko'plab G'arb davlatlarida ta'lim sohasi xodimlari va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil Ombudsman institutlari samarali ishlaydi. Agar tarbiyachiga nisbatan ma'muriy bosim yoki majburiy badal talab qilinsa, u to'g'ridan-to'g'ri ushbu mustaqil organga murojaat qiladi va uning shaxsi sir saqlangan holda muammo zudlik bilan hal etiladi.

Tarbiyachining huquqiy himoyasi nima uchun muhim?

Tarbiyachi — bolaning ijodiy va intellektual dunyosini shakllantiruvchi asosiy shaxs. Agar tarbiyachi moddiy tomondan siqilsa yoki uning mehnat huquqlari poymol etilsa, unda **“kasbiy kuyish” (burnout)** sindromi yuzaga keladi. Natijada:

- Bolalar bilan ishlashga bo'lgan qiziqish so'nadi;
- Mashg'ulotlar sifatsiz, shunchaki “ko'zbo'yamachilik” uchun o'tiladi;
- Pedagoglar sohani tark eta boshlaydi, bu esa malakali kadrlar taqchilligiga olib keladi.

Muammoni hal etish yo'llari va tavsiyalar:

Xalqaro tajriba va milliy qonunchiligimiz tahlilidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning huquqlarini kafolatlash uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Finlyandiya modelini tatbiq etish (Byurokratiyani kamaytirish): Tarbiyachilarni ortiqcha, mazmunsiz hisobotlar va qog'ozbozlikdan xolos etish, raqamlashtirish tizimini yanada soddalashtirish orqali ularga ko'proq kasbiy erkinlik berish.

2. Moliyaviy ta'minot shaffofligi: MTTlarning moddiy-texnika bazasini shakllantirish to'liq davlat budjeti yoki qonuniy homiylik mablag'lari hisobidan qoplanishi, tarbiyachilar yoki ota-onalar yonidan pul sarflash amaliyotiga chek qo'yilishi lozim.

3. “Pedagog Ombudsman” institutini rivojlantirish: O'qituvchi va tarbiyachilarning huquqlari buzilganda (majburiy mehnat yoki obuna holatlarida) anonim va tezkor murojaat qilish imkonini beruvchi mustaqil huquqiy himoya platformalarini yaratish.

4. Nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Mehnat inspeksiyasi tomonidan tarbiyachilar o'rtasida davriy anonim so'rovnomalar o'tkazish va noqonuniy holatlarga yo'l qo'ygan rahbarlarga nisbatan keskin choralar ko'rish.

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimida sifat va natijadorlikka erishish uchun birinchi navbatda tarbiyachining qadr-qimmati, mehnati va huquqini himoya qilishimiz shart. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagog moddiy va ma'muriy bosimlardan erkin bo'lsagina, bor e'tiborini bola tarbiyasiga qaratadi. Tarbiyachi faqat va faqat bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi, uning ijtimoiy-huquqiy himoyasi qat'iy davlat nazoratida bo'lishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 01.02.2024 yildagi “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi O'RQ-901-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 30.04.2023 yildagi Mehnat kodeksi.
3. Special Act on the Improvement of Teachers' Status and the Protection of Their Educational Activities, Act No. 19122, Dec. 27, 2022.
4. Xasanova, M. U. (2024). Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish. Modern Science and Research, 3(1), 1-2.



INNOVATIVE
ACADEMY